

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

TEXNIKA YO‘NALISHIDAGI OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA UMUMKASBIY FANLARNI O‘QITISH MAZMUNI LOYIHALASHTIRISH

Baxriddinova Nasiba Muradovna

Buxoro muhandislik texnologiya instituti dotsenti,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: *Texnik oliy ta‘lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni o‘qitish mazmunini loyihalashtirish talabalar kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik dizayn tamoyillari, raqamli texnologiyalar va interaktiv usullar joriy etilishi bu jarayonni samarali qiladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg‘unlashuvini ta‘minlaydi. Shuningdek, kasbiy standartlarga moslashtirilgan ta‘lim mazmuni texnik mutaxassislarni mehnat bozoriga tayyorlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Umumkasbiy fanlar, texnik ta‘lim, pedagogik dizayn, kasbiy kompetensiya, raqamli texnologiyalar, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, innovatsion ta‘lim.*

ПРОЕКТИРОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ОБЩЕПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ

Аннотация: *Проектирование содержания общепрофессиональных дисциплин в технических вузах способствует развитию профессиональных навыков студентов и повышению их конкурентоспособности. Внедрение принципов педагогического дизайна, цифровых технологий и интерактивных методов повышает эффективность обучения. Компетентностный подход обеспечивает интеграцию теоретических знаний с практикой, а адаптация учебного контента к профессиональным стандартам улучшает подготовку технических специалистов.*

Ключевые слова: *Общепрофессиональные дисциплины, техническое образование, педагогический дизайн, профессиональная компетентность, цифровые технологии, компетентностный подход, инновационное обучение.*

DESIGNING THE CONTENT OF TEACHING GENERAL PROFESSIONAL DISCIPLINES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF A TECHNICAL PROFILE

Abstract: *The design of general professional subjects in technical universities enhances students' professional skills and competitiveness. Implementing pedagogical design principles, digital technologies, and interactive methods improves learning effectiveness. A competency-based approach integrates theoretical knowledge with practice, while aligning educational content with professional standards ensures better preparation for the labor market.*

Keywords: *General professional subjects, technical education, pedagogical design, professional competence, digital technologies, competency-based approach, innovative education.*

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni o'qitish mazmunini loyihalashtirish talabalar kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish va ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda texnika yo'nalishdagi mutaxassislarni tayyorlash jarayoni tobora murakkablashib, innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmonida oliy ta'lim qamrovini kengaytirish va oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish vazifalari belgilangan.[1] Bu esa mamlakatimizda oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan muhim siyosat hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Umumkasbiy fanlar esa bu jarayonda poydevor vazifasini bajaradi. Bu fanlarni o'qitish orqali talabalarda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati ham rivojlantiriladi. Mazkur fanlarni samarali loyihalashtirish va o'qitish jarayonida ta'lim mazmunini kasbiy standartlarga muvofiq shakllantirish, talabalar ehtiyojlariga moslashtirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Bu o'qitish jarayonini yanada samarali qilish va bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, maqolada umumkasbiy fanlarni o'qitish mazmunini samarali loyihalashtirish bo'yicha asosiy tamoyillar, metodlar va muammolar tahlil qilinadi.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida umumiy fanlarni o'qitish mazmunini loyihalashtirish keng qamrovli yondashuvni talab etadi. Bu jarayon pedagogik dizayn tamoyillarini joriy etish, kasbiy standartlarga moslashtirish hamda talabalar va mehnat bozori ehtiyojlarini qondirishga qaratilishi lozim. Ushbu ko'p qirrali strategiya ta'lim mazmunini zamonaviy muammolarga mos, samarali va moslashuvchan qilishni ta'minlaydi. Ayniqsa, texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida bu jarayon kasbiy standartlarga moslashtirilgan holda amalga oshirilishi zarur.

Pedagogik dizayn – bu ta'lim jarayonini samarali va maqsadga muvofiq tashkil etish uchun o'quv materiallarini ishlab chiqish, ulardan foydalanish va baholash jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish usuli hisoblanadi. Umumkasbiy fanlarni o'qitishda ushbu

tamoyillarini qo‘llash ta’lim mazmunining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Quyidagi tamoyillarni ko‘rib chiqamiz.

O‘quv materiallarini ishlab chiqishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va talabalarning texnologik savodxonligini oshirish maqsadida interaktiv metodlarni qo‘llash zarur. Bu jarayon nafaqat nazariy bilimlarni, balki muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ta’lim mazmuni modullarga bo‘lingan holda tashkil etilib, har bir modul muayyan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Modullar moslashuvchan bo‘lib, talabalarning individual o‘zlashtirish darajasi va qiziqishlariga moslashtiriladi. Ta’lim jarayonida talaba va o‘qituvchilar fikr-mulohazalarini inobatga olib, o‘quv dasturlarini doimiy ravishda yangilab borish. Bu ta’lim mazmunini dolzarb saqlashda yordam beradi.

Pedagogik dizayn ta’lim mazmunini rivojlantirishning asosi sifatida xizmat qiladi, bu jarayon texnologik savodxonlik va innovatsion o‘qitish usullarini o‘z ichiga oladi. [2]

Texnologik savodxonlik texnologiyalarni tushunish, ulardan samarali hamda ijodiy foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonidir. Ushbu tushuncha zamonaviy o‘quv jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

a) **Texnologik bilimlarga** texnologiyalarning ishlash tamoyillari, texnik vositalar va dasturiy ta’minotni tushunish, axborot xavfsizligini ta’minlash kiradi.

b) **Amaliy ko‘nikmalarga** kompyuterlar, planshetlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish, dasturlar va mobil ilovalardan maqsadli foydalanish, internet resurslaridan axborotni samarali topish va uni tahlil qilishni kiritish mumkin.

c) **Ijodkorlik va innovatsiyaga** yangi texnologiyalardan ta’lim jarayonini takomillashtirishda foydalanish, muammolarni hal qilish uchun texnologiyalardan foydalanish kabi bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Texnologik savodxonlik nafaqat o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro aloqalarini boyitadi, balki ularning muloqot, tanqidiy fikrlash va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Innovatsion o‘qitish usullari — bu ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlardan foydalanib, o‘quvchilarni qiziqtirish, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan usullardir. Ushbu usullar quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

❖ **Axborot-kommunikatsion texnologiyalar**, onlayn platformalar (masalan, Google Classroom, Moodle)dan, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar hamda interaktiv taqdimotlar va vizualizatsiya vositalaridan samarali foylanish mumkin.

❖ **Faol va interaktiv usullardan Breynstorming (fikrlar hujumi)** talabalarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi. **“Case study” (holatlarni o‘rganish)** muayyan muammoni hal qilishda amaliy yondashuv hosil qilinadi. **diskussiya va debatlar orqali** o‘quvchilarning muloqot va analitik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

❖ **Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish)** orqali ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va qiziqarli topshiriqlar, bosqichma-bosqich rivojlanish mexanizmlari ishlab chiqilib ijobiy natijalarga erishish mumkin.

❖ **Kreativ yondashuvlar**dan dizayn fikrlash ya’ni muammolarni hal qilish uchun ijodiy g‘oyalardan foydalanish imkonini beradi. “Fikrlar mozaikasi” kabi yangi usullar esa guruhli ijodkorlikni rivojlantirish mumkin.

Tahlil va natijalar. SMART texnologiyalaridan foydalanib o‘quv jarayonini boshqarish va baholashni avtomatlashtirish hamda shaxsiylashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqib uni amalda joriy etish imkoniyatini yaratadi. **Texnologik savodxonlik va innovatsion usullarning ta’limga ta’siri haqida aytadigan bo‘lsak, talabalarning faolligini oshiradi.** Bunda zamonaviy texnologiyalar ularga o‘z qiziqishlariga mos ravishda ta’lim olish imkonini beradi.

O‘qituvchilarning samaradorligini oshiradi, ya’ni dars jarayonini interaktiv va innovatsion qilish orqali maqsadlarga tezroq erishiladi. **Raqobatbardoshlikni oshiradi**, bunda talabalar bozor talablariga mos ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Texnologik savodxonlik va innovatsion usullarni ta’limga joriy etish zamonaviy jamiyatning rivojlanish talablariga javob beradi va o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Fikr-mulohazalarni integratsiya qilish orqali ta’lim jarayonlarini doimiy baholash va takomillashtirish amalga oshiriladi. Bu talabalar orasida tanqidiy fikrlash va moslashuvchanlikni rivojlantiradi.

Kasbiy standartlar — bu muayyan kasb yoki soha bo‘yicha xodimlarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarni belgilovchi hujjatdir. Ushbu standartlar mehnat bozorining ehtiyojlariga mos keluvchi mutaxassislarni tayyorlash, malaka talablarini aniqlash va mehnat faoliyatining sifatini ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Kasbiy standartlarga moslashtirish mehnat bozorining talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni ta’minlash uchun zarur. Bu jarayon quyidagi sabablarga ko‘ra ahamiyatlidir.

Mehnat bozorining talablariga moslashuv ya’ni, mutaxassislar tayyorlash jarayonini mehnat bozoridagi o‘zgaruvchan ehtiyojlarga moslashtirish. O‘quv dasturlarini standartlar asosida takomillashtirish orqali ta’lim sifatini ta’minlash. Talabalar va mutaxassislarning xalqaro va mahalliy bozorlar talablariga javob bera olish qobiliyatini rivojlantirish. Xodimlarning kasbiy darajasini adolatli va standartlarga muvofiq baholash.

O‘quv dasturlarini ishlab chiqish ya’ni, ta’lim mazmuni Davlat ta’lim standartlari va kasbiy standartlarga mos bo‘lishi kerak. Bu talabalar tayyorgarligining soha talablariga mos kelishini ta’minlaydi.[3]

Kompetensiya — bu muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatning majmuidir.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv — bu ta’lim jarayonida talabalarning bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodologiya. Bu yondashuv o‘quvchilarni nafaqat nazariy bilimlarni egallashga, balki ularni

amalda qo‘llashga va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lishga tayyorlashni ko‘zda tutadi. Ushbu yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim ya‘ni, talabalarga real muammolarni hal qilishda yordam berish, nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlarga qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish. **Talabaning markaziy roli tamoyili, bunda ta‘lim** jarayoni talabaning ehtiyojlari, qiziqishlari va shaxsiy xususiyatlariga asoslanadi.

Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyada jamoada ishlash, muloqot qilish va turli madaniyatlar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantiriladi. Shaxsiy kompetensiyada mustaqillik, mas‘uliyat va o‘zini rivojlantirishga qaratilgan qobiliyatlar shakllantiriladi. **Axborot-kommunikatsion kompetensiyada** zamonaviy texnologiyalar va axborot vositalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Kompetensiyaga asoslangan ta‘lim natijasida shaxsiy va kasbiy rivojlanish, talabalar shaxsiy sifatlarini, mas‘uliyatni va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, bitiruvchilar o‘z kasbiy vazifalarini mustaqil ravishda bajarishga tayyor bo‘ladilar. Ushbu yondashuv bozor talablariga javob beradigan malakali mutaxassislarni tayyorlashni ta‘minlaydi. Bu yondashuv zamonaviy ta‘limning asosiy poydevori bo‘lib, ta‘lim sifati va uning mehnat bozori ehtiyojlariga mosligini ta‘minlaydi.

Zamonaviy o‘quv dasturlari kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bunda o‘quv natijalari aniq belgilanishi va ishchi kuchida zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga mos kelishi lozim.[5]

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar umumkasbiy fanlarni o‘qitishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Masalan **SMART texnologiyalar**, ta‘lim mazmunini moslashtirish, interaktiv darslarni tashkil etish va talabalarning o‘zlashtirish darajasini baholash imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar talabalarning o‘z-o‘zini o‘qitish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Onlayn platformalar jumladan Moodle, Google Classroom kabi platformalar o‘quv materiallarini samarali taqdim etish va masofaviy ta‘lim jarayonlarini tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, onlayn testlar va baholash vositalari ta‘lim jarayonini yanada qulaylashtiradi.

Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar talabalar uchun amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu vositalar talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini oshiradi. Ta‘lim mazmunini samarali loyihalashtirish umumkasbiy fanlar va talabalar kelajakdagi kasbiy faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘minlashni talab qiladi. Bu talabalar ta‘limini yaxlit anglashiga yordam beradi. [6]

Umumkasbiy fanlarni o‘qitish mazmunini loyihalashtirishda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi.

1. **O‘qituvchilarni tayyorlash orqali** zamonaviy metod va texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini joriy etish. Bu o‘qituvchilarning innovatsion ta‘lim usullarini qo‘llash qobiliyatini oshiradi.

2. Raqamli texnologiyalar va resurslar bilan ta’minlanganlikni oshirish orqali ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish.

3. Ta’lim mazmunini takomillashtirish uchun zarur resurslarni ajratish. Xususan, loyiha asosidagi grant dasturlarini kengaytirish orqali o‘qitish jarayonini moliyalashtirish mumkin.

4. Milliy madaniyat va urf-odatlarini ta’lim mazmuniga integratsiya qilish orqali talabalar o‘rtasida vatanparvarlik va madaniy ongni rivojlantirish.

Texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni o‘qitish mazmunini loyihalashtirish talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirish va mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik dizayn tamoyillari, innovatsion texnologiyalar va kasbiy standartlarga moslashtirish orqali ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish mumkin.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar va interaktiv usullarni joriy etish talabalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. O‘quv dasturlarini mehnat bozoriga mos ravishda shakllantirish va milliy hamda xalqaro kasbiy standartlarga muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, umumkasbiy fanlarni samarali loyihalashtirish zamonaviy ta’lim talablariga javob berib, texnika sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

¹. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

². Olesya, Vakulenko. (2023). 1. Pedagogical design of the content of technology education as a scientific problem. Vitoki pedagogičnoï majsternosti, doi: 10.33989/2075-146x.2023.32.292617

³ E., N., Furtova. (2022). 2. Investigation of the problem of designing the content of general professional disciplines in technical universities. Vestnik Majkopskogo gosudarstvennogo tehnologičeskogo universiteta, doi: 10.47370/2078-1024-2021-13-2-126-133

⁴ Rais, S., Safin., Evgeny, A., Korchagin., Tatyana, V., Suchkova., Ilfak, E., Vildanov., Runar, Abitov. (2018). 4. The method of designing objectives and content of professional education in technical higher educational institutions based on professional standards.

⁵. Nina, Batechko., Lyudmyla, Pantalienenko. (2020). 5. Syllabuses of educational disciplines: modern approaches to the formation of the content of engineering specialists’ training. doi: 10.28925/2312-5829.2020.3.5